

BO’LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIV SALOHIYATNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО
ПОТЕНЦИАЛА У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ»

DIDACTIC CONDITIONS FOR DEVELOPING CREATIVE
POTENTIAL IN FUTURE EDUCATORS

Omonboyeva Oynisa Rasuljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, Pedagogika nazariyasi va tarixi

Mutaxassisligi(sohalar bo'yicha) 2-bosqich magistranti

E-mail: oynisa.omonboyeva@mail.ru Tel: +998 95 030 52 00

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21158848>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida bo’lajak xorijiy til (ingliz tili) o’qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirishning didaktik hamda motivatsion-psixologik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Maqolada ta’lim jarayonida shaxsiy avtonomiya, “xato qilish huquqi”, psixologik xavfsizlik muhiti hamda subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptirishning ahamiyati ilmiy asoslangan. Shuningdek, bo’lajak pedagoglarning tahliliy, amaliy va ijodiy ko’nikmalarini shakllantirishda “keys-stadi” (case-study) texnologiyasining didaktik imkoniyatlari va uning kasbiy tayyorgarlikdagi o’rni yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: didaktik shart-sharoit, kreativ salohiyat, bo’lajak pedagog, motivatsiya, psixologik xavfsizlik, keys-stadi, subyekt-subyekt munosabati, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В данной статье исследуются дидактические и мотивационно-психологические условия развития креативного потенциала будущих учителей иностранных языков (английского языка) в системе высшего образования. В работе научно обоснована важность установления личной автономии, “права на ошибку”, атмосферы психологической безопасности и субъект-субъектных отношений в учебном процессе. Также освещаются дидактические возможности технологии “кейс-стади” (case-study) в формировании аналитических, практических и творческих навыков будущих педагогов, а также её роль в профессиональной подготовке.

Ключевые слова: дидактические условия, креативный потенциал, будущий педагог, мотивация, психологическая безопасность, кейс-стади, субъект-субъектные отношения, профессиональная компетенция.

Annotation. This article examines the didactic and motivational-psychological conditions for developing the creative potential of future foreign language (English) teachers within the higher education system. The paper scientifically substantiates the importance of establishing personal autonomy, the “right to make mistakes,” an atmosphere of psychological safety, and subject-subject relationships in the educational process. Furthermore, it highlights the didactic capabilities of case-study technology in shaping the

analytical, practical, and creative skills of future educators, alongside its role in professional training.

Keywords: didactic conditions, creative potential, future educator, motivation, psychological safety, case-study, subject-subject relationships, professional competence.

Kirish. Bo'lajak pedagoglarda kreativ salohiyatni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo oliy ta'lim tizimida bo'lajak xorijiy til (keying o'rinlarda ingliz tili) o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni nafaqat ularning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga, balki zamonaviy ta'lim muhitida raqobatbardosh bo'la oladigan kreativ shaxs qiyofasini yaratish ham muhim ekanligiga ahamiyat qaratishimiz lozim. Bo'lajak pedagoglarning kreativ salohiyatini takomillashtirish o'z holiga tashlab qo'yilmagan, balki ilmiy asosda rejalashtirilgan, tizimli ravishda tashkil etilgan didaktik shart-sharoitlar majmuasini talab etadi. Didaktikaning so'zma so'z tarjimai "ta'lim nazariyasi" ma'nosini anglatadi va fanga ushbu atamani birinchi bo'lib chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" nomli mashxur asarida tilga olinadi.

Didaktika - ta'limning nazariy jihatlar, ta'lim jarayoning mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning amqasadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va muammolarini tadqiq etadi[1]. Didaktika ta'limning mazmuni va jarayonini birgalikda o'rganishga qaratilgan bo'lib, dars berish va bilim olish tizimining poydevoridir. Didaktik shart-sharoitlar deganda, biz ta'lim jarayoning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi, o'quv jarayoning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarining o'zaro muvofiqlashtirilgan pedagogik muhitini tushunamiz.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kreativ salohiyatini takomillashtirishda motivatsion-psixologik shart-sharoitlar fundamental poydevor vazifasini o'taydi. Pedagogik psixologiyada kreativlik shunchaki kognitiv jarayon emas, balki shaxsning ichki ehtiyojlari, qadriyatlari va emotsional holati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har qanday kreativ faoliyatning drayveri – bu shaxsning yangilikka bo'lgan intilishi va o'z-o'zini namoyon qilish (self-actualization) ehtiyojidir.

Asosiy qism: Oliy ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglar uchun kreativ maydon yaratish, avvalo, ularning ichki motivatsiyasini faollashtirishni taqozo etadi. Amerika psixologi E. Desi va R. Riyanlarning "O'z-o'zini belgilash nazariyasi" (Self-Determination Theory)[2]ga ko'ra, shaxsda kompetentlik, avtonomiya (mustaqillik) va ijtimoiy bog'liqlik hissi shakllangandagina ichki motivatsiya yuqori darajada namoyon bo'ladi. Xorijiy til o'rganish jarayonida bu talabaga til materialini tanlashda erkinlik berish, uning individual o'rganish uslubini tan olish va o'z fikrini chet tilida ifodalashda "shaxsiy daxldorlik" hissinı uyg'otish orqali amalga oshadi.

"Xato qilish huquqi" va psixologik xavfsizlik zonasi. Didaktik jarayonda kreativlikni bo'g'uvchi eng katta to'siq – bu xato qilishdan va uning ortidan keladigan salbiy baholanishdan qo'rqish hissidir. Kreativ salohiyatni

rivojlantirish uchun oliy ta’lim auditoriyasida “psixologik xavfsizlik” muhitini yaratish zarur. Bu shuni anglatadiki, talaba o’zining eng g’ayritabiiy, nostandart g’oyalarni ham bayon etishda o’zini erkin his qilishi, pedagog va tengdoshlari tomonidan tanqid qilinmasligiga ishonishi lozim. “Xato qilish huquqi”ning tan olinishi talabani intellektual tavakkalchilikka undaydi. Chet tili darslarida bu ayniqsa muhimdir, chunki talaba nafaqat grammatik xatodan, balki o’z fikrini “noto’g’ri” tushuntirishdan ham hayiqadi. Agar o’qituvchi asosiy e’tiborni tilning shakliga emas, balki g’oyaning mazmuniga va o’ziga xosligiga qaratasa, talabaning kreativ “to’siqlari” (blocks) parchalanadi.

Subyekt-subyekt munosabatlari va pedagogik muloqot. Motivatsion-psixologik sharoitning muhim tarkibiy qismi — bu o’qituvchi va talaba o’rtasidagi an’anaviy iyerarxik munosabatlardan voz kechib, hamkorlik muloqotiga o’tishdir. K. Rojersning insonparvarlik pedagogikasi tamoyillariga ko’ra, o’qituvchi “fasilitator” (yordamchi, jarayonni yengillashtiruvchi) vazifasini bajarishi kerak[3]. Bunda “ustoz-shogird” muloqoti shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki birgalikda kashfiyotlar qilish jarayoniga aylanadi. Pedagog talabaga o’zining shaxsiy kreativ namunasi bilan o’rnak bo’lishi, uning qiziqishlarini samimiy qo’llab-quvvatlashi kreativ salohiyatning uyg’onishiga xizmat qiladi.

Baholash tizimining transformatsiyasi. Kreativlikni rivojlantirishning psixologik sharti sifatida baholash tizimini qayta ko’rib chiqish talab etiladi. raqamli yoki standartlashtirilgan baholash ko’pincha kreativlikni cheklaydi, chunki talaba “to’g’ri javob”ni topishga e’tibor qaratadi. Buning o’rniga, formativ baholash va refleksiya usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talaba o’zining ijodiy o’sishini o’zi kuzatishi, erishgan yutuqlaridan qoniqish hosil qilishi va keyingi izlanishlar uchun ichki turtki olishi kerak. Bu jarayonda talabaning o’z-o’ziga ishonchi (self-efficacy) ortadi, bu esa o’z navbatida uning murakkab pedagogik va lingvistik masalalarni hal qilishdagi qat’iyatini ta’minlaydi.

Motivatsion-psixologik shart-sharoitlar majmuasi bo’lajak xorijiy til o’qituvchisida kreativlikni “kasbiy turmush tarzi” sifatida qabul qilishga yordam beradi. Bunday muhitda tarbiya topgan talaba nafaqat chet tilini mukammal egallaydi, balki kelajakda o’z o’quvchilarining ham ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga qodir bo’lgan, ruhan tayyor va intellektual jihatdan jasur pedagog bo’lib yetishadi.

Bo’lajak pedagoglarning kreativ salohiyatini oshirish uchun bir qator texnologiyalar mavjud bo’lib, ulardan biri keys-stadi texnologiyasidir. Ushbu texnologiya kreativlikni shunchaki bir so’z sifatida emas, balki uni professional tajribaga aylantirishga imkon beradi. “Keys-stadi” texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta’lim jarayonida qo’llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo’llanila boshlangan. Keyslarning ilk to’plami 1925 -yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan.[4] Hozirgi kunda ushbu texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo’llanilmoqda. O’zbekistonda esa ushbu texnologiyani ta’lim jarayonida qo’llash yo’lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi. Keys-stadining ta’lim jarayonida qo’llasa

boʻladigan tayyor variantlari ham mavjud, ularni sotib olish mumkin. Ammo maʼlum bir fan boʻyicha keyslar yaratish samaraliroq hisoblanadi. Ushbu texnologiya talabalarda oʻtilayotgan fanni yoki mavzuni oʻzlashtirishga boʻlgan qiziqishishi ortttiradi, amaliy koʻnikmalarni, vaziyatlarni tahlil qilish va toʻgʻri qaror qabul qilish va ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali faol oʻzlashtirish uchun imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy uzluksiz taʼlim talablari va raqamli jamiyat taraqqiyoti boʻlajak pedagog kadrlar tayyorlash tizimining tubdan transformatsiyalashuvini taqozo etmoqda. Bugungi kun oʻqituvchisi nafaqat tor doiradagi fan axborotlarini yetkazuvchi (translator), balki oʻquv-tarbiya jarayonini loyihalashtiruvchi, innovatsiyalarni boshqaruvchi va oʻquvchilarning ijodiy salohiyatini faollashtiruvchi strateg hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Talabalar keys-stadi yordamida tahliliy, ijodiy, ijtimoiy, amaliy, muloqot, oʻz-oʻzini tahlil koʻnikma-malakalariga ega boʻlishiustuvor ahamiyat kasb etadi [5].

Mazkur tizimning poydevorini tahliliy (analitik) koʻnikma-malakalar tashkil etadi. Tahliliy tayyorgarlik boʻlajak oʻqituvchiga pedagogik voqelik va hodisalarni diagnostika qilish, oʻquv dasturlari va metodik manbalarni ilmiy saralash, sinf jamoasining psixologik iqlimini toʻgʻri baholash hamda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolarni oldindan prognozlash imkonini beradi. Biroq, har qanday mukammal tahliliy xulosa amaliyot bilan mustahkamlanmas koʻp hollarda deklarativ xarakterga ega boʻlib qoladi. Shu sababli, amaliy koʻnikma-malakalar tahlil natijasida shakllangan nazariy gʻoyalarni bevosita dars jarayoniga samarali tatbiq etish, zamonaviy taʼlim texnologiyalaridan unumli foydalanish va pedagogik taym-menejment qoidalariga rioya qilgan holda dars samaradorligini kafolatlash funksiyasini bajaradi. Zamonaviy pedagogika fani va amaliyotining eng dolzarb talablaridan biri — bu boʻlajak mutaxassislarda ijodiy (kreativ) koʻnikma-malakalarni jadal rivojlantirishdir. Kasbiy faoliyatda qolipli (shablonli) fikrlashdan voz kechish, nostandart pedagogik vaziyatlarda innovatsion va muqobil yechimlarni operativ tarzda ishlab chiqish, oʻquv jarayonini interaktiv oʻyinlar hamda raqamli didaktik vositalar (masalan, sunʼiy intellekt elementlari) orqali boyitish aynan ijodiy salohiyat darajasiga bogʻliqdir. Kreativ yondashuv darsning emotsionalligini oshirish bilan bir qatorda, oʻquvchilarda ham mustaqil va mustasno fikrlash immunitetini shakllantiradi.

Xulosa. Oliy taʼlim muassasalarida boʻlajak xorijiy til oʻqituvchilarining kreativ salohiyatini takomillashtirish bugungi rivojlanayotgan hamda raqamli jamiyat va uzluksiz taʼlim transformatsiyasining eng fundamental talablaridan biridir. Tadqiqot natijalari va nazariy tahlillar shuni koʻrsatadiki, talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish stixiyali jarayon boʻlmay, u aniq maqsadga yoʻnaltirilgan didaktik tizimni taqozo etadi. Ushbu tizimning samaradorligi quyidagi muhim xulosalar orqali belgilanadi:

-Motivatsion-psixologik poydevor: boʻlajak pedagogda kreativlik uygʻonishi uchun anʼanaviy iyerarxik (avtoritar) taʼlimdan voz kechilib, “psixologik xavfsizlik zonasi” va “xato qilish huquqi” taʼminlanishi, oʻqituvchi esa jarayonni boshqaruvchi emas, balki fasilitator sifatida namoyon boʻlishi shart.

-Didaktik muhit transformatsiyasi: standartlashtirilgan, faqat yodlashga asoslangan baholash tizimidan formativ va refleksiv baholashga o'tish talabalarida “o'z-o'ziga ishonch” (self-efficacy) hissini oshiradi.

-Interaktiv texnologiyalar integratsiyasi: “Keys-stadi” (case-study) texnologiyasi talabalarni qolipli fikrlashdan uzoqlashtirib, real pedagogik muammolarga nostandart va innovatsion yechimlar topish muhitini yaratadi. Ushbu texnologiya tahliliy, amaliy va kreativ ko'nikmalarni yagona tizimda birlashtiradi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimida mazkur didaktik shart-sharoitlar majmuasining yaratilishi — faqatgina til qoidalarini biladigan emas, balki kelajakda o'z o'quvchilarining ham ijodiy qobiliyatlarini ochib bera oladigan, ruhan tayyor, intellektual jihatdan jasur va raqobatbardosh yangi avlod pedagog kadrlarini shakllantirishning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari [matn]: o'quv qo'llanma / N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sayfurov, A. To'rayev. - Toshkent: "BAYOZ", 2024. - 144 bet.
2. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – Berlin: Springer, 1985. – 372 p.
3. Роджерс К. К теории творчества: взгляд на психотерапию. Становление человека. – М., 1994. – 480 с.
4. Usmonbaeva M., Rejametova I. Jabborov Z. "Pedagogika nazariyasi" fanidan o'quv topshiriqlari. – Toshkent: "Lesson Pres" nashriyoti, 2018. – 156 bet.
5. Usmonbaeva M., Rejametova I. Jabborov Z. "Pedagogika nazariyasi" fanidan o'quv topshiriqlari. – Toshkent: "Lesson Pres" nashriyoti, 2018. – 156 bet.